



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

NAMANGAN VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI 2023- YIL YANVAR (DASTLABKI MA'LUMOT)




Tel.: 69-211-72-00




www.namstat.uz

Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi



2023- yil yanvar oyida



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023-yilning yanvar oyida Namangan viloyati korxonalari tomonidan 1 061,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022-yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 98,9 % ni tashkil etdi.



Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 81,2 % ni tashkil etdi.




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

2023- yil yanvar oyida

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sanoati 125,3 % ga o'sishi hisoblanadi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash





Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023-yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,7 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ini tashkil etdi.





Ishlab chiqaradigan sanoat


2023- yil yanvar oyida



2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 861,2 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 81,2 % ini tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,9 % ni (2022- yilning yanvar oyida – 2,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 5,0 % (7,4 %), o'rta-quyi texnologiyali – 11,4 % (9,7 %) va quyi texnologiyalisi – 81,7 % (80,5 %) ni tashkil etdi.






2023- yil yanvar oyida

Jami sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 40,7 % (2022-yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 103,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 20,8 % (2022-yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 88,9 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 2,6 % (2022-yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi - 94,2 %), asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 1,5 % (2022-yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 104,3 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 2,5 % (2022-yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 98,0 %) ni tashkil etdi

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmlari



2023- yil yanvar oyida




2023-yilning yanvar oyi davomida jami sanoatda 4,7 ming tonna bug'doy uni ishlab chiqarilgan bo'lib, (2022-yilning yanvar oyiga nisbatan 54,0 % ga kamaygan), 3,0 ming tonna paxta tolasi (10,0 % kamaygan), 2,2 ming. tonna omuxta yem mahsulotlari (48,0 % ga kamaygan) hamda 4,9 ming tonna paxta chigiti (16,0 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar	2023- yil yanvar	Farqi +/-
Omuxta yem, ming tonna	5,2	2,2	-3,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	10,2	4,7	-5,5
Paxta tolasi, ming tonna	3,3	3,0	- 0,3
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t	1,5	0,0	- 1,5

Metallurgiya sanoati

2022- yilning yanvar oyida jami sanoat tarkibida metallurgiya sanoati ulushi 0,6 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 76,4 % bo'lgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar oyi yakunida ham, metallurgiya sanoatining ulushi 0,6 % ga teng bo'lib, fizik hajm indeksi esa, 29,0 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 6,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Jami sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar oyida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 47,7 mlrd so'mni yoki jami sanoat hajmining 5,2 % ni tashkil etgan, 2023-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar sanoati 40,1 mlrd so'mni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmidagi ulushi 3,8 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Jami sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar oyida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 170,9 mlrd so'mni, joriy 2023-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 201,7 mlrd so'mni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan jami oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 30,8 mlrd so'mga ortgan.



Ichimliklar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar oyida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 23,9 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 19,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 4,5 mlrd. so'mga kamaygan va jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 1,8 % ni tashkil etdi.

2022- yil

158,1 %

2023- yil

69,3 %

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish

2022- yil

111,2 %

2023- yil

106,4 %

2022-yilning yanvar oyida jami sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 24,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 111,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 30,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 106,4 % ga teng bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 319,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ulushi 9,4 % ni, ya'ni jami 86,9 mlrd so'mni tashkil etgan, 2023-yilning yanvar oyida kiyim ishlab chiqarish ulushi 9,4 % ni tashkil etib, 95,9 mlrd. so'mga tengdir. Namangan viloyatida kiyim ishlab chiqarish o'tgan 2022-yilning mos davriga nisbatan 9,0 mlrd. so'mga oshgan.

2022- yil

93,4 %



2023- yil

96,4 %

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 19,4 mlrd. so'mni, jami sanoatdagi ulushi 2,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar oyida Namangan viloyati bo'yicha 10,9 mlrd. so'mlik kimyo mahsulotlari ishlab chiqarilib, jami sanoatdagi ulushi 1,0 % ni, tashkil etdi.

**Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish**


2022-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari 0,4 mlrd. so'mni tashkil etib jami sanoatining 0,04 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar oyida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish 0,7 mlrd. so'mga ko'payib, 1,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar sanoatdagi ulushi 1,5 % ni, yani 9,7 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar oyida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoati o'tgan yilga nisbatan 6,3 mlrd. so'mga ko'paygan va 16,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




2023- yil yanvar oyida

Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2023-yil yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 188,3 mlrd. so'mni (jami sanoat mahsulotlari hajmining 17,8 % ini) tashkil etadi.

2023-yilning yanvar oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan -14,8 mlrd so'mga kamayganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar	2023- yil yanvar	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	497,1	492,7	-4,4
Issiqlik energiyasi, ming gkal	7,9	7,6	- 0,3

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9,9 mlrd so'mni (jami sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 %ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar	2023- yil yanvar	Farqi +/-
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va suv ta'minoti bo'yicha xizmatlar - mlrd so'm	6,7	6,3	-0,4
Shahar xo'jaliklarning qayta foydalanishga yaroqsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	1,7	1,7	0,0

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvni qayta ishlash va suv ta'minoti bo'yicha xizmatlar 0,4 mlrd. so'm yoki 6,0 % ga kamayganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'rnalarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 1,7 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 596,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022-yilning mos davriga nisbatan o'sish 101,0 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 56,2 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari



92,7 %

2023- yil
yanvar



117,7 %

2022- yil
yanvar



Nooziq-ovqat mahsulotlar



106,0 %

2023- yil
yanvar



108,4 %


2022- yil
yanvar





Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib 51,4 % ni, shuningdek, Kosonsoy tumani 8,9 % To'raqo'rg'on tumani 7,3 % ni, Chust tumani 6,0 % ni, Chortoq tumani 5,2 % ni, Pop tumani 4,5 % ni tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 306,5 mlrd. so'mni yoki jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 51,4 %, Kosonsoy tumanida 53,3 mlrd. so'm bo'lib, 8,9% ni shuningdek, To'raqo'rg'on tumanida 43,6 mlrd so'mni jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 7,3 %ni tashkil etdi.



yanvar
mlrd.so'm





Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi





Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining Namangan viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 49,8% shuningdek, Chortoq tumani 12,0 %, Pop tumani 10,4 % ni tashkil etadi.



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi




2023- yil yanvar holatiga ko'ra


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 183,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 17,3 % ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da.







Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da (2023- yil yanvar)



Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining Namangan viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib 52,2 % ni, shuningdek, Kosonsoy tumani 12,4% ni, To'raqo'rg'on tumani esa 10,0 % ni tashkil etdi.




o'sish sur'ati
mlrd. so'm



Namangan viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 40,1 %ni, shuningdek, To'raqo'rg'on tumani 21,5 %ni, Chust tumani 6,5 %ni, Uychi tumani 5,6 % tashkil etdi.

Namangan viloyati



yanvar o'sish sur'ati




o'sish sur'ati mlrd. so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga To'raqo'rg'on tumani (967,0 ming so'm), Namangan shahrida (635,6 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Namangan viloyati



 o'sish sur'ati
 ming. so'm

Namangan viloyati




yanvar o'sish sur'ati




Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan 476,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 44,9 % ni tashkil etdi.

Namangan viloyati



yanvar ulushi % da.




Namangan sh.		56,3
Mingbuloq		239,8
Kosonsoy		58,9
Namangan		25,4
Norin		39,3
Pop		21,7
To'raqo'rg'on		54,7
Uychi		21,7
Uchqo'rg'on		75,9
Chortoq		7,8
Chust		74,5
Yangiqo'rg'on		25,3
		7,1
		16,2
		71,0
		42,1
		23,7
		11,2
		100,0
		31,4
		23,2
		16,1
		100,0
		17,5

jamidagi ulushi mlrd. so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Namangan viloyati bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 201,0 ming so'm bo'lgani holda, Namangan shahrida – 457,7 ming so'mni, Kosonsoy tumanida 242,0 ming so'mni, To'raqo'rg'on tumanida 184,3 ming so'mni tashkil etdi.



Namangan viloyati

154,6 ming.so'm 2022-yil

201,4 ming.so'm 2023-yil



yanvar o'sish sur'ati

109,3 % 2022-yil

98,8 % 2023-yil

Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 7 572 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2 953 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 39,0 % i) Namangan shahriga, 575 tasi (7,6 %) Kosonsoy tumaniga, 552 tasi (7,3 %) Chust tumaniga, 542 tasi (7,2 %) Uychi tumaniga, 524 tasi (6,9 %) Namangan tumaniga, 475 tasi (6,3 %) To'raqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Jami yangi tashkil etilgan



2022- yil yanvar



2023- yil yanvar




Jami faoliyat yuritayotgan



2022- yil yanvar



2023- yil yanvar



yangi tashkil etilgan faoliyat yuritayotgan

